MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

# Olimpiada topshiriqlari (III bosqichi)
# TARIX 11

***1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi***

**1. 1991-yilda MDH deklaratsiyasi qaysi shaharda qabul qilingan?**
A) Ashxobod B) Olmaota C) Bishkek D) Dushanbe

**2. O‘rta asrlarda mo‘g‘ullar Movarounnahrning qaysi shaharini 5 oy davomida qamal qilganlar?**
A) Yangikent B) O‘tror C) Xo‘jand D) Urganch

**3. Qaysi davlatda hokimiyat general Duglas Makartur boshchiligidagi AQSH okkupatsion qo‘shinlari shtabiga o‘tadi?**
A) Yaponiya B) Vyetnam C) Misr D) Iroq
10-sinf jahon tarixi 144-bet

**4. 2007-yilda Islom Hamkorligi tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tuzilmasi - AYSESKO tomonidan qaysi shahar Islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilingan?**
A) Buxoro B) Toshkent C) Tehron D) Ashxobod

**5. Asfandiyorxon qachon Junaydxonni turkmanlarni sardori etib tayinlaydi?**
A) 1911-yil B) 1915-yil C) 1912-yil D) 1920-yil

**6. Xiva saroy kutubxonasidan 300 dona qo‘lyozma, 18 dona Qur’oni karim, 50 dan ortiq nodir kitoblar kim tomonidan musodara qilib yuborilgan?**
A) M. Chernayev B) M. Skobelev C) K. Kaufman D) A. Kuropatkin

**7. Mustamlakachilarga qarshi Bobo Go‘klan boshchiligida xalq qo‘zg‘oloni qayerlarda bo‘lib o‘tgan?**
A) Biybozor, Nukus B) Chimboy, Mang‘it C) Xiva, Xo‘jayli D) Urganch, To‘rtko‘l

**8. Xitoyda yozuv uchun bambuk o‘rnida shoyi matodan foydalanishga o‘tilgan davrda Yunoniston tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.**
A) Drakont qonunlari e’lon qilindi
B) Teatr dunyoga keldi
C) Ibodatxonalar va boshqa jamoat binolari toshdan barpo etila boshlandi
D) Yunon-Makedon urushi bo‘lib o‘tdi

**9. YUNESKO tomonidan qachon va qayerda “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi” qabul qilingan?**
A) 1998-yil Dushanbeda B) 2006-yil Dehlida C) 1995-yil Parijda D) 1992-yil Londonda

**10. XVIII asrda Turkiyaning qaysi davlatdan yengilishi mamlakatda hukm surayotgan o‘rta asr munosabatlarining inqiroziga sabab bo‘ldi?**
A) Angliya B) Fransiya C) Eron D) Rossiya

***2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi***

**11. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida favqulodda hollarda aholidan shoshilinch yig‘ib olingan soliq turini aniqlang.**
A) shulen B) ixrojot C) chiqim D) talab

**12. Ukraina milliy valyutasi – grivna muomalaga kiritilgan yilda sodir bo‘lgan voqeani toping.**
A) Tojikiston konstitutsiyasi qabul qilindi B) Qozog‘iston poytaxti Ostona deb ataladigan bo‘ldi
C) B.Klinton ikkinchi marta prezidentlikka saylandi
D) NATO qo‘shinlari Yugoslaviyani bombardimon qildi

**13. O‘zbek milliy musiqasini rivojlantirishda hissa qo‘shgan kompozitorlarni aniqlang.**
A) Olim Xo‘jayev, Karim Zokirov B) Rahim Pirmuhammedov, Yunus Rajabiy

C) To‘xtasin Jalilov, Muxtor Ashrafiy D) Mutavakkil Burhonov, Mannon Uyg‘ur

**14. XIX asrda qoraqalpoq hunarmandlari necha yoshli bolalarni shogirdlikga qabul qilib, ularga hunar sirlarini o‘rgatgan?**
A) 12-13 yoshli B) 8-10 yoshli C) 7-8 yoshli D) 14-15 yoshli

**15. “Bu – inson uchun kichik bir qadam, lekin butun insoniyat uchun ulkan sakrash” degan fikrlar muallifini toping.**
A) Mao Szedun B) Nil Armstrong C) Stenli Kohen D) Herbert Boyer

**16. Kimlar Buyuk Karlning joylardagi vakillari sifatida uning buyruqlarini bajaruvchilar hisoblangan?**
A) tunginlar B) graflar, gersoglar
C) yepiskoplar, yirik monastirlar abbatlari D) feodallar, graflar

**17. Qaysi shaharda bo‘lgan Arab mamlakatlari rahbarlari kengashida Feysalning taklifi bilan “Islom konferensiyasi” tashkiloti tuzildi?**
A) Bag‘dod B) Qohira C) Rabot D) Tehron

**18. Tarixda qaysi inqilob juda tez va yo‘qotishlarsiz amalga oshirilgan?**
A) “Lola inqilobi” B) “Aprel inqilobi” C) “Rangli inqilobi” D) “Atirgullar inqilobi”

**19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi farmoni asosida …**
A) O‘zbekiston Islom akademiyasi tashkil etildi B) Islom madaniyati markazi tashkil etildi
C) Toshkent islom universitetiga asos solindi D) Samarqandda ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi

**20. O‘zbekiston Respublikasi hukumati yo‘lovchi tashish sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish uchun Afrosiyob tezyurar poyezdini tashkil qildi. Ushbu tezyurar poyezdini dastlabki yo‘nalishini aniqlang.**
A) Angren-Pop B) Toshkent-Buxoro C) Toshkent-Samarqand D) Toshkent-Xiva

**21. Sardiniya qirolligi bosh vaziri K. Kavur qanday davlat tuzumi tarafdori edi?**
A) anarxiya B) konstitutsiyaviy monarxiya C) mutlaq monarxiya D) respublika

**22. “O‘zbekiston havo yo‘llari” aviakompaniyasi tarkibida 11 ta zamonaviy aeroportlar jahon andozasi darajasida modernizatsiya qilingan. Qaysi javobda modernizatsiya qilingan aeroportlar joylashgan hududlar to‘g‘ri berilgan?**
A) Termiz, G‘uzor, Urganch B) Namangan, Andijon, Guliston
C) Samarqand, Nukus, Qarshi D) Buxoro, Farg‘ona, Xo‘jayli

**23. 1827-yilda Turkiyaga qaram Gretsiyaga muxtoriyat huquqi berilishini ko‘zda tutuvchi bitim qayerda imzolangan?**
A) Londonda B) Istanbulda C) Parijda D) Afinada

**24. Fransiyada Karl X hukmronligi davrida yuz bergan inqilobning maqsadi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.**
A) Fransiyada Respublika tuzumini o‘rnatish B) Burbonlar hokimiyatini mustahkamlash
C) Monarxiyani tiklash D) Napoleon tarafdorlari hokimiyatini qayta tiklash

**25. VI asrda turklar Sirdaryodan o‘tib, Zarafshon vodiysiga kirib borishi natijasida qaysi hududlarni egallaydi?**
A) Kesh, Naxshab B) Buxoro, Choch C) Samarqand, Balx D) Toxariston, Chag‘oniyon

***3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi***

**26. Rossiya tarixida birinchi inqilob boshlangan yilda ...**
A) Eron Buyuk Britaniya va Rossiyaning ta'sir doiralari haqidagi bitimni tan olishga majbur bo'ldi
B) Yaponiya Kurill orollarini Rossiyadan ajratib, o'ziga qo'shib oldi
C) Yaponiya urush e'lon qilmasdan Port-Arturdagi Rossiya harbiy dengiz kuchlariga hujum qildi
D) Rossiya Koreyani Yaponiya ta'sir doirasida deb tan oldi

**27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentabrdagi farmoniga asosan …**
A) Milliy xavfsizlik xizmati tasarrufida chegara qo'shinlari boshqarmasi tashkil qilindi
B) Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilindi
C) Mamlakatimizda o'lim jazosi bekor qilindi
D) O'zbekiston Respublikasi prezidenti saylovi to'g'risida hujjat qabul qilindi

**28. Ganza ittifoqi Shimoliy dengizda savdodagi raqobatchisi Daniya qiroliga jiddiy zarba bergan davrda Osiyo tarixida yuz bergan voqeani toping.**
A) Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketdi
B) Chig'atoy ulusi tashkil topdi.
C) Amir Temur davlati tashkil topib, mustahkamlandi
D) Amir Temur Hirot, Seiston va Mozandaronni egalladi.

**29. Quyidagi tarixiy voqealardan dastlabki sodir bo'lgan voqeani toping.**
A) Plastik sanoatining yuzaga kelishi
B) Motorola uyali aloqa telefonini ishlab chiqilishi
C) ENIAC kompyuterining kashf etilishi
D) ARPANET tarmog'ining yaratilishi

**30. Ma'lumki, 1905-yilda Eronda inqilobiy harakat boshlangan edi. Qo'zg'olon ko'targan aholi qanday talabni ilgari surganligini aniqlang.**
A) yirik mulkdor qatlamlarning daromadlarini hisobga olish va soliqqa tortish
B) rus-ingliz sarmoyadorlarini mamlakat hududidan chiqarib yuborish
C) barcha fuqorolarga teng saylov huquqini berish
D) yersiz va kam yerli dehqonlarga yer ajratish hamda ijara yerlaridan olinadigan soliqlarni kamaytirish

**31. Roman uslubida barpo etilgan quyidagi inshootlardan qaysilari Fransiyaga joylashgan?**
*1) Puate; 2) Vorms; 3) Klyune; 4) Maynts; 5) Arl; 6) Shpeyer*
A) 1, 2, 3
B) 1, 3, 5
C) 1, 4, 6
D) 1, 4, 5

**32. Norbo'tabiy madrasasiga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.**
*1) XVIII asr oxirida bunyod etilgan; 2) XIX asr I choragida bunyod etilgan; 3) to'g'ri to'rtburchakli, bir qavatli va 4 minorali obida; 4) hovlisi va hovli atrofida peshayvonli hujralar mavjud; 5) aylana shaklida qurilgan bo'lib, atrofida 4 ta minora qad rostlagan*
A) 1, 4, 5
B) 2, 4, 5
C) 2, 3, 4
D) 1, 3, 4

**33. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Yaponiya taraqqiyotining qaysi xususiyatlari jihatidan Rossiyaga o'xshab ketardi?**
A) hokimiyatning burjuaziya qo'lida ekanligi
B) kapitalizm taraqqiyotining mehnatkash aholiga, ayniqsa, dehqonlarga qulaylik yaratish yo'llari bilan bog'liqligi
C) monopolistik kapitalizm feodal-monarxiya qoldiqlari bilan chirmashib ketganligi
D) hokimiyat ishlaridan pomeshchik-burjuaziya blokining uzoqlashtirilishi

**34. Qaysi voqeadan so'ng Shermuhammadbek asosiy kuchlarini olib, Oloy vohasiga chekinadi?**
A) Madaminbek tomonidan Farg'ona fronti qo'shinlari qo'mondonligiga yarashish muzokaralarini boshlashini taklif qilishi
B) Madaminbek noaniq vaziyatda o'ldirilishi

C) Madaminbek va N.Veryovkin-Roxalskiy o‘rtasida o‘rtasida yarash bitimi imzolanishi
D) Katta Ergash qo‘rboshining mag‘lubiyatga uchrashi

**35. Eftaliylar davrida O‘rta Osiyo aholisining madaniy an’analari qo‘shni mamlakatlar, xususan, ...**
A) Turkiy xalqlar madaniyati an’analarining qo‘shilishi va ilk o‘rta asrlar madaniyati ravnaqiga olib keldi
B) Dasht aholisi mahalliy me’morchilik an’analari bilan uyg‘unlashib ilk o‘rta asr madaniyatining shakllanishida muhim rol o‘ynadi
C) Xitoy va Eron tasviriy uslublari bilan uyg‘unlashuvi yuz berib ilk o‘rta asrlar madaniyatining shakllanishiga ta’sir etdi
D) Hindiston va Eron tasviriy uslublari bilan uyg‘unlashib ilk o‘rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylandi

**36. Turkiston jadidlarining fikricha mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashda zarur hisoblangan** choralarni aniqlang.
*1) yer, suv, yerusti va yerosti boyliklarini Turkiston xalqining umumiy boyligi deb e’lon qilish; 2) turli ijtimoiy va ma’rifiy jamiyatlar tuzish; 3) barcha sohalarni rivojlantirishga qodir mahalliy kadrlarni tayyorlash; 4) mustamlakachilikka qarshi kurash dasturini yaratish; 5) zavod va fabrikalar qurish, mahsulotlarni o‘lkaning o‘zida ishlab chiqarish; 6) dehqonlar ongiga mustaqillik g‘oyalarini singdirish*
A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 5, 6 D) 2, 5, 6

**37. 1795-yilda Fransiya Konventi qabul qilgan Konstitutsiya qanday o‘zgarishlarni amalga oshirdi?**
*1) Respublika tuzumini mustahkamladi; 2) Ma’lum miqdordagi feodal tartiblar saqlab qolindi; 3) Umumiy saylov huquqini bekor qildi; 4) Ikki palatali parlament joriy etildi; 5) Burjuaziya va monarxiyachilar ittifoqi mustahkamlandi; 6) Mamlakatda yagona konsullik lavozimi joriy etildi.*
A) 1, 5, 6 B) 2, 4, 6 C) 3, 5, 6 D) 1, 3, 4

**38. “Xitoy uyushmalari ittifoqi” siyosiy tashkiloti qabul qilgan dasturida ko‘zda tutgan masalalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.**
*1) Sin monarxiyasini ag‘darish; 2) chet elliklarni mamlakatdan quvib chiqarish; 3) respublika ta’sis etish; 4) sanoat korxonalarini barpo etish; 5) yerga egalik huquqini tenglashtirish; 6) mustaqillikni tiklash*
A) 1, 2, 4, 6 B) 2, 4, 5, 6 C) 1, 3, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5

**39. Oltin O‘rda davlati o‘z qudratining cho‘qqisiga erishgan davrda ...**
A) Moskva knyazligi Oltin O‘rdaga boj-yasoq to‘lashdan bosh tortdi
B) Temuriylar saltanati beqaror siyosiy vaziyatlar tufayli inqirozga yuz tutdi
C) Movarounnahr o‘nga yaqin mustaqil bekliklarga bo‘linib ketdi
D) Chig‘atoy ulusida mo‘g‘ullarning o‘troqlikka o‘tish jarayoni kuchayib, ularning ijtimoiy hayotida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi

**40. 1889-yilda qabul qilingan Yaponiya konstitutsiyasiga ko‘ra imperator qanday huquqlarni o‘ziga saqlab qoldi?**
*1) parlament chaqirish, ochish, tarqatib yuborish; 2) vazirlarni lavozimiga tayinlash va chetlatish; 3) qonunlar o‘rniga oliy farmonlar chiqarish; 4) qo‘shinlarning oliy bosh qo‘mondoni bo‘lish; 5) soliqlar joriy etish; 6) urush e’lon qilish va sulh tuzish; 7) viloyat hokimlarini tayinlash*
A) 1, 2, 5, 6 B) 1, 3, 4, 6 C) 3, 5, 6, 7 D) 2, 4, 6, 7